

TRANSPORT-LOGISTIKA TIZIMINING MODERNIZATSIYASI VA UNING EKSPORT-IMPORT JARAYONLARIGA TA'SIRI: YANGI IPAK YO'LI SHAROITIDA O'ZBEKISTON TAJRIBASI"

Fazliddinova Sabohat Ilxomovna

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar yo'nalishi

Telefon nomer: +998953220508

sabohat0812@gmail.com

Shuhratillayev Yusuf Oybekovich

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar yo'nalishi

Telefon nomer: +998937930705

shuhratillayevyusuf@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18372782>

Annotatsiya: Quyidagi maqolada logistika sohasining hozirgi holati, mamlakatimizda yaratilgan imkoniyatlar, logistika infratuzilmasini rivojlantirish uchun keng sharoitlar yaratish, shuningdek, ushbu soha faoliyatini takomillashtirishda rivojlangan mamlakatlarning ilmiy va amaliy tajribasini o'rganish va qo'llash masalalari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, maqolada Yangi Ipak yo'li tashabbusi doirasida O'zbekistonning tranzit salohiyatini oshirish, transport-logistika tizimini modernizatsiya qilish, raqamli logistika texnologiyalarini joriy etish, hamda eksport-import jarayonlarini samaradorlashtirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar yoritilgan. Mazkur yo'nalishdagi innovatsion o'zgarishlar nafaqat mamlakat ichki bozorida, balki xalqaro savdo aloqalarida ham raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qilmoqda.

Kalit so'zlar: transport-logistika tizimi, modernizatsiya, Yangi Ipak yo'li, O'zbekiston, tranzit salohiyati, raqamli logistika, eksport-import jarayonlari, infratuzilma, xalqaro savdo, innovatsion rivojlanish

Metodologiya: Ushbu ilmiy maqolani tayyorlash jarayonida birlamchi va ikkilamchi ma'lumotlar asosida kompleks tahlil metodlariga tayanildi. Asosiy ma'lumotlar manbai sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining (Stat.uz) rasmiy saytida e'lon qilingan statistik ma'lumotlar hamda tegishli sohalarga oid ilmiy maqolalar va rasmiy axborotlardan foydalanildi. Tahlilda eksport va import hajmlarining so'nggi yillardagi o'zgarishlari grafik shaklida ko'rsatilib, taqqoslash va dinamik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Kirish: Transport-logistika tizimi har bir davlat iqtisodiyotining ajralmas qismi bo'lib, mamlakatning eksport-import salohiyatini belgilovchi asosiy omillardan biridir. O'zbekiston geografik joylashuvi jihatidan Markaziy Osiyoning markazida joylashgan bo'lib, tarixan Sharq va G'arbni bog'lab turgan Buyuk Ipak yo'lining muhim bo'g'ini sifatida tanilgan. Mustaqillik yillarida mamlakat transport sohasiga katta e'tibor qaratilib, avtomobil, temir yo'l va aviatsiya infratuzilmasiga yirik investitsiyalar yo'naltirildi. Bu jarayonlar O'zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalarini mustahkamlash va xalqaro savdo oqimlarida faol ishtirok etish imkonini yaratdi.

Yangi Ipak yo'li tashabbusi — "Bir makon, bir yo'l" (Belt and Road Initiative) doirasida O'zbekiston transport-logistika tizimining modernizatsiyasi yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Mamlakat Prezident Shavkat Mirziyoyev olib borayotgan ochiqlik siyosati natijasida O'zbekiston mintaqaviy integratsiya va xalqaro hamkorlikda faol ishtirok eta boshladi. Bu

jarayon mamlakatni “quruqlikka yopiq” holatdan “transport jihatdan bog’langan” davlatga aylantirish imkonini bermoqda.

Xususan, Xitoy–Qirg’iziston–O‘zbekiston temir yo‘li, “Toshkent–Andijon–O‘sh–Irkishtom” avtomobil yo‘lagi va boshqa transport loyihalari O‘zbekistonning eksport-import imkoniyatlarini kengaytirib, logistika xarajatlarini kamaytirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, zamonaviy logistika texnologiyalarini joriy etish, transport infratuzilmasini raqamlashtirish va logistika markazlarini rivojlantirish orqali mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish maqsad qilinmoqda.

Ushbu maqolada quyidagi masalalar tahlil qilinadi: O‘zbekistonda transport-logistika tizimining modernizatsiyasi jarayonlari, ularning eksport-import faoliyatiga ta’siri, Yangi Ipak yo‘li doirasidagi hamkorlik imkoniyatlari hamda bu o‘zgarishlarning mamlakat iqtisodiy xavfsizligi va raqobatbardoshligiga ta’siri.

Tahlil va natijalar

1.1 “Transport-logistika tizimi” tushunchasi va mazmuni

Logistika - iqtisodiy rivojlanishning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, ko‘plab mamlakatlarda iqtisodiy o‘shishning asosiy harakatlantiruvchi omillaridan biri sifatida e’tirof etilgan. Kristofer (2016) ta’rifiga ko‘ra, logistika - bu tovarlar, xizmatlar va axborotni ularning kelib chiqish nuqtasidan iste’molchiga yetkazish jarayonidir¹. U transport, omborxona, taqsimot, zaxiralarni boshqarish va ta’minot zanjiri boshqaruvi kabi faoliyat turlarini o‘z ichiga oladi. Logistika sohasi turli hajmdagi korxonalar samarali ishlashi, xarajatlarni kamaytirishi va foydani oshirishi uchun muhim rol o‘ynaydi. Bundan tashqari, logistika sohasi bandlik va infratuzilma rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi. Bu soha butun dunyo bo‘yicha millionlab insonlarga yuk mashinasi haydovchilari, ombor ishchilari, logistika tahlilchilari va ta’minot zanjiri menejerlarigacha ish o‘rinlarini yaratadi. Shuningdek, portlar, aeroportlar, avtomobil yo‘llari va temir yo‘llar kabi logistika infratuzilmasi tovarlar va odamlar harakatini osonlashtirish orqali iqtisodiy o‘shishni qo‘llab-quvvatlaydi.

Logistika sohasi ayniqsa rivojlanayotgan davlatlar uchun iqtisodiy o‘shishning muhim sektori hisoblanadi, chunki u ishlab chiqaruvchilarni ichki va tashqi bozorlardagi iste’molchilar bilan bog‘lashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

1.2 Logistika tarmoqlarining iqtisodiy o‘shishga ta’siri

Logistika xalqaro savdoning ajralmas tarkibiy qismidir. U tovar va xizmatlarning chegaralardan o‘tishini ta’minlab, korxonalarga yangi bozorlar va iste’molchilarga kirish imkonini beradi. Logistika har qanday hajmdagi korxonalar (kichik bizneslardan tortib yirik transmilliy kompaniyalargacha) uchun zarurdir. Jahon Savdo Tashkiloti (2020) ma’lumotlariga ko‘ra, 2019-yilda global tovar savdosi hajmi 2,1 foizga oshgan, dunyo savdosining umumiy qiymati esa 18,89 trillion AQSh dollariga baholangan². Ushbu o‘shishda logistika sohasi transport, omborxona va taqsimot xizmatlarini ko‘rsatish orqali muhim rol o‘ynagan.

Savdoni yengillashtiruvchi choralar (savdo to‘siqlarini kamaytirish, bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish va logistika infratuzilmasini yaxshilash) savdo hajmini oshirish va iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantirishga yordam beradi. Xalqaro Savdo Palatasi (2020) ma’lumotlariga ko‘ra, savdoni yengillashtirish choralari amalga oshirish savdo xarajatlarini

¹<https://www.theamericanjournals.com/index.php/tajmei/article/view/4849/4533>

²<https://www.theamericanjournals.com/index.php/tajmei/article/view/4849>

14 foizgacha kamaytirishi, savdo oqimlarini 5 foizgacha oshirishi va yalpi ichki mahsulotni 3,6 foizgacha ko'tarishi mumkin.³ Shu bois logistika infratuzilmasini rivojlantirish va savdo to'siqlarini kamaytirish iqtisodiy rivojlanishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Logistika infratuzilmasi iqtisodiy rivojlanishning muhim omili bo'lib, korxonalarga yangi bozorlarga chiqish, transport xarajatlarini kamaytirish va samaradorlikni oshirish imkonini beradi. Logistika infratuzilmasi tarkibiga portlar, aeroportlar, avtomobil yo'llari, temir yo'llar, shuningdek, omborlar va taqsimot markazlari kiradi.

Musso va hammualliflar (2019) tadqiqotlariga ko'ra, logistika infratuzilmasiga investitsiyalarni 10 foizga oshirish mamlakat YaIMini 1 foizga ko'taradi.⁴ Shu bilan birga, logistika infratuzilmasini yaxshilash transport xarajatlarini kamaytiradi va korxonalarining ichki hamda xalqaro bozorlarda raqobatbardoshligini oshiradi. Logistika sohasi bandlik va ish o'rinlari yaratishda muhim rol o'ynaydi, u butun dunyo bo'ylab millionlab odamlarni ish bilan ta'minlaydi. Xalqaro Mehnat Tashkiloti (2018) ma'lumotlariga ko'ra, logistika sohasida 40 millionga yaqin kishi band bo'lib, bu raqam keyingi yillarda yanada ortishi kutilmoqda. Bu sohada ombor ishchilaridan tortib yuqori malakali logistika tahlilchilari va ta'minot zanjiri menejerlarigacha turli darajadagi mutaxassislar faoliyat yuritadi.

Bundan tashqari, logistika infratuzilmasiga yo'naltirilgan investitsiyalar qurilish, transport va logistika xizmatlari sohalarida yangi ish o'rinlari yaratadi (Xalqaro Moliya Korporatsiyasi, 2019). Shu bilan birga, bu investitsiyalar ishlab chiqarish va chakana savdo kabi boshqa tarmoqlarda iqtisodiy faollikni oshirish orqali bilvosita bandlikni ham kuchaytiradi. Logistika sohasi doimiy rivojlanib boradi - bunga texnologik yutuqlar va o'zgarayotgan iste'molchi talablari turtki bo'lmoqda. Avtonom transport vositalari, dronlar, blokcheyn kabi texnologiyalar sohada inqilob yasab, korxonalarga samaradorlikni oshirish va xarajatlarni kamaytirish imkonini bermoqda.

Jahon Iqtisodiy Forumi (2020) ma'lumotlariga ko'ra, logistika sohasi innovatsiyalar markazida turibdi - avtomatlashtirish, ma'lumotlar tahlili va sun'iy intellekt kabi texnologiyalar tovarlarni tashish, saqlash va yetkazish jarayonlarini tubdan o'zgartirmoqda. Ushbu texnologiyalarni joriy etish natijasida samaradorlik oshadi, xarajatlar kamayadi va mijozlar qoniqishi yaxshilanadi.

2.1 Transport logistika tizimining hozirgi holati

O'zbekiston iqtisodiyoti jadal o'sib borar ekan, transport jarayonlarini zamonaviy logistika texnologiyalari asosida tashkil etish zarur. Prognozlarga ko'ra, 2035-yilga kelib YaIM o'rtacha yillik 6,6 foizga o'sib, 2018-yilga nisbatan uch barobar ortadi⁵. Shu bois, sifatli transport xizmatlariga talab ortib bormoqda, biroq tizim bu ehtiyojni to'liq qondira olmayapti.

“O'zbekiston Respublikasi transport tizimini 2035-yilgacha rivojlantirish strategiyasi”da yuk tashish sifati va hajmini oshirish, ekologik ta'sirni kamaytirish, konteyner terminallarini modernizatsiya qilish kabi ustuvor yo'nalishlar belgilangan.

Soha rivojida bir nechta muammolar mavjud. Avvalo, transport xizmatlari sifati pastligi yuk tashish hajmining sust o'sishiga sabab bo'lmoqda. Konteynerlashtirish darajasi ham past

³<https://www.theamericanjournals.com/index.php/tajmei/article/view/4849>

⁴<https://www.theamericanjournals.com/index.php/tajmei/article/view/4849>

⁵<https://inovatus.es/index.php/ejbsos/article/download/2412/2315/3030>

bo'lib, bu xarajatlarning yuqori bo'lishiga olib keladi. Shuningdek, avtomobil transporti chiqindilarning 80 foizini tashkil etib, ekologik muammolarni kuchaytirmoqda.

Bundan tashqari, transport siyosatini muvofiqlashtiruvchi yagona tizimning kech shakllangani va raqamlashtirish jarayonlarining sustligi soha samaradorligini cheklamoqda. Shu sababli, transport-logistika tizimini modernizatsiya qilish, ekologik barqarorlikni ta'minlash va xalqaro raqobatbardoshlikni oshirish dolzarbdir.

“Bir makon - bir yo'l” tashabbusi va O'zbekiston: transport-logistika hamkorliklari

Xitoy tomonidan ilgari surilgan “Bir makon - bir yo'l” tashabbusi Markaziy Osiyo, jumladan O'zbekiston uchun yirik transport va savdo infratuzilmasiga integratsiyalashish imkonini berdi. O'zbekiston ushbu tashabbus doirasida bir nechta asosiy yo'nalishlar bo'yicha hamkorlikni kuchaytirmoqda va ularning eng asosiylari quyidagilardan iborat:

Transkaspiy xalqaro transport yo'lagi (TITR): Ushbu yo'nalish O'zbekistonni Kaspiy dengizi Gruziya portlari - Poti va Batumi orqali Yevropaga chiqish imkoniyati bilan ta'minlaydi. Bu yo'l nafaqat yuk tashish vaqtini qisqartiradi, balki mavjud dengiz yo'llariga samarali muqobil sifatida xizmat qilmoqda. Transkaspiy yo'lagi orqali o'tuvchi yuk hajmining yildan yilga ortib borayotgani bu yo'lning iqtisodiy jihatdan samarali ekanligini isbotlaydi. O'zbekiston uchun bu yo'l yangi eksport bozorlariga chiqish, tranzit salohiyatini kuchaytirish va logistika xarajatlarini kamaytirishda muhim omil hisoblanadi.

Xitoy-Qirg'iziston-O'zbekiston temiryo'li loyihasi: Ushbu temiryo'l yo'nalishi Markaziy Osiyo va Xitoy o'rtasidagi eng qisqa yo'nalishlardan biri sifatida ahamiyat kasb etadi. Loyihaning to'liq amalga oshirilishi yuk tashish masofasini sezilarli darajada qisqartiradi va xarajatlarni taxminan 30 foizgacha kamaytiradi. Shu bilan birga, bu yo'l orqali yuklar o'rtacha 7-8 kun ichida Xitoydan O'zbekistonga yetib kelishi mumkin. O'zbekiston uchun bu loyihaning amalga oshirilishi nafaqat tashqi savdo tezligini oshiradi, balki logistika tizimi samaradorligini ham mutlaqo yangi bosqichga olib chiqadi.

Ichki tranzit yo'llarning modernizatsiyasi va yuk oqimining o'sishi: So'nggi yillarda O'zbekiston ichki transport yo'llarini modernizatsiya qilishga katta e'tibor qaratmoqda. 2023-yil yakunlariga ko'ra, temiryo'l orqali tranzit yuk tashish umumiy yuk hajmining katta qismini tashkil etdi. Bu esa temiryo'l infratuzilmasining kuchli va barqaror ekanini ko'rsatadi. Avtomobil transporti orqali yuk tashish hajmi ham sezilarli darajada o'sgan. Ichki transport yo'llarining rivojlanishi tashqi yuk oqimini samarali boshqarish, bojxona postlaridagi yuk to'planishining oldini olish va xalqaro tranzitda raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qilmoqda.

Ushbu yo'nalishlar orqali mamlakatning tranzit salohiyati ortib bormoqda va O'zbekiston Markaziy Osiyodagi muhim transport tuguniga aylanish yo'lida izchil qadamlar tashlamoqda.

Yangi Ipak yo'li sharoitida eksport-import salohiyatining kengayishi

Yangi Ipak yo'li transport yo'nalishlari orqali yuk oqimlarining ko'payishi O'zbekistonning eksport va import imkoniyatlariga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, temiryo'l orqali yuk tashishdagi tezlik va xavfsizlik darajasining ortishi eksportchilar uchun muhim afzalliklar yaratmoqda.

Asosiy statistik ma'lumotlar:

Yil	Eksport (mlrd \$)	Import (mlrd \$)
2019	17.4	24.2

Yil	Eksport (mlrd \$)	Import (mlrd \$)
2020	15.1	21.2
2021	16.6	25.5
2022	19.7	30.7
2023	24.4	38.1
2024	1.1	3.06

2019-2024-yillar oralig'ida O'zbekistondagi import va eksport hami (mlrd \$da)⁶

Ushbu grafik O'zbekistonning 2019-yildan 2024-yilgacha bo'lgan eksport va import hajmlaridagi o'zgarishlarni ko'rsatadi. Diqqatga sazovor jihati shundaki, 2019 yildan 2023 yilgacha eksport va import hajmlari sezilarli darajada oshib borgan, bunda eksport 17,4 milliard dollardan 24,4 milliard dollargacha, import esa 24,2 milliard dollardan 38,1 milliard dollargacha o'sishni namoyish etgan.

Bu o'sish transport-logistika tizimining modernizatsiyasi va yangi infratuzilma loyihalari, xususan, Yangi Ipak yo'li doirasida amalga oshirilgan katta investitsiyalar bilan chambarchas bog'liq. Xitoy-Qirg'iziston-O'zbekiston temiryo'li, Transkaspiy yo'lagi kabi tranzit yo'llarining ochilishi, bojxona jarayonlarining raqamlashtirilishi va avtomatlashtirilishi transport samaradorligini oshirib, eksport va import jarayonlarini tezlashtirdi hamda xarajatlarni kamaytirdi.

2024 yildagi keskin pasayish esa vaqtinchalik muammolar — logistika tarmog'idagi muayyan texnik va tashkiliy to'siqlar, global bozorlardagi notinchliklar, shuningdek, statistika ma'lumotlarining yil boshidagi hisoblash usullaridagi farqlar bilan izohlanishi mumkin. Shu bilan birga, joriy islohotlar va yangi transport yo'llarining to'liq ishga tushirilishi eksport-import hajmlarining kelgusida yana barqaror o'sishini ta'minlaydi.

Transport-logistika sohasini rivojlantirish bo'yicha istiqbollar va takliflar

Transport-logistika tizimini yanada rivojlantirish O'zbekiston iqtisodiy strategiyasining muhim qismidir. Quydagi yo'nalishlar kelgusi yillarda logistika tizimini rivojlanishiga munosib hissa qo'shadi:

Blokcheyn texnologiyasini joriy etish: Blokcheyn texnologiyasi yuklar harakatini real vaqt rejimida kuzatish, hujjat aylanishini soddalashtirish va xavfsizlikni oshirish imkonini beradi. Dastlabki bosqichda uni quyidagi jarayonlarda sinovdan o'tkazish maqsadga muvofiq:

- chegara o'tish punktlarida yuk kuzatuv;
- tranzit deklaratsiyalarini avtomatik tasdiqlash;
- yuklar kelib chiqishi va yo'nalishini tasdiqlovchi raqamli sertifikatlar.

Ekologik va yashil logistika tamoyillarini rivojlantirish: O'zbekiston 2030 yilgacha temiryo'l transportining 75% qismini elektrlashtirishni maqsad qilgan. Bu "yashil logistika"ni rivojlantirishda asosiy strategik yo'nalish hisoblanadi.

- Elektr yuk mashinalari parkini bosqichma-bosqich shakllantirish.
- "Green corridor"- ya'ni ekologik xavfsiz transport yo'laklari orqali yuk tashishni rivojlantirish.

⁶ https://stat.uz/img/press_reliz_tashi_savdo_uzb_yanvar_2025-ok_p60092.pdf

Xalqaro tajriba va investitsiyalarni jalb etish: Andijonda nemis kompaniyasi bilan hamkorlikda multimodal logistika markazi qurilishi shuni ko'rsatadiki, xorijiy investorlar bu sohada O'zbekistonni jozibali bozor deb hisoblamogda. Shu boisdan:

- PPP (davlat-xususiy sheriklik) asosida logistika markazlarini barpo etish;
- xorijiy logistika operatorlari bilan qo'shma korxonalar tashkil qilish;
- xalqaro moliyaviy institutlar orqali infratuzilma loyihalariga mablag jalb qilish lozim.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda transport-logistika tizimini modernizatsiya qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakatning tranzit salohiyatini oshirish, eksport-import jarayonlarini jadallashtirish va xalqaro savdodagi mavqeini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Yangi Ipak yo'li tashabbusi doirasida olib borilayotgan infratuzilmaviy loyihalar, raqamli logistika texnologiyalarining joriy etilishi hamda zamonaviy logistika markazlarining rivojlanishi iqtisodiy samaradorlikni sezilarli darajada oshirmogda. Shu bilan birga, rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rganish va amaliyotga tatbiq etish O'zbekiston transport-logistika tizimining barqaror va innovatsion rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Tekir, G. (2025). Uzbekistan in the Belt and Road Initiative: Reviving connectivity. *Journal of Eurasian Studies*. Advance online publication.
2. Akmalov, O.Khalid, S. (2024). The impact of logistics on global economic development: A comprehensive review. *The American Journal of Management and Economics Innovations*, 6(2), 40–43.
3. Bustonov, K.K., Mo'minov, B.O., Tashbayev, E. (2024). Theoretical basis of increasing the economic efficiency of the transport-logistics system. *British Journal of Global Ecology and Sustainable Development*, 33, 24–30.
4. Sharifovich, Niyazov Maruf. "Introduction of Digital Technologies in Postal Enterprises." *European Journal of Business Startups and Open Society* 4, no. 9 (2024): 12–15.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika Agentligi. O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo aylanmasi: 2025-yil yanvar oyi uchun dastlabki ma'lumot. Toshkent: Statistika Agentligi, 2025. PDF.